

## OLIV TA'LIMDA “USTOZ-SHOGIRD” TIZIMINING YARATILISHI, TAKOMILLASHIB BORISH XUSUSIYATLARI VA RAQOBAT USULLARI

**Sidiqova Marjona Isomiddin qizi**

*Oriental universitetining Bakalavr 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur tadqiqot maqolasida oliy ta'lim tizimida “ustoz-shogird” (mentoring, tutoring, kouching) tizimining tarixiy shakllanishi, dunyoviy ilm-fan va zamonaviy pedagogika talablari asosida takomillashib borish xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotda an'anaviy sharqona murabbiylik usullarining zamonaviy kredit-modul tizimidagi o'rniga baho berilib, shogirdlarning mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetentligini oshirishda sog'lom raqobat usullarining roli ochib berilgan. Empirik kuzatuvlar va statistik tahlillarga tayangan holda, mentorlikning talaba o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri grafiklar va jadvallar yordamida asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** *Ustoz-shogird tizimi, mentoring, tutoring, oliy ta'lim, sog'lom raqobat, statistik tahlil, kredit-modul tizimi, kasbiy kompetentlik, kognitiv rivojlanish.*

### **1. Kirish (Introduction)**

Har bir jamiyatning rivojlanishida va taraqqiyotida ta'lim tizimining takomillashuvi eng muhim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi faqatgina fundamental va amaliy bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki mustaqil fikrlaydigan, o'z kasbining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lgan shaxsni shakllantirishni maqsad qiladi. Bugungi tezkor globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ma'lumotlarni izlash muammo emas, balki ularni to'g'ri saralash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish talabalar oldidagi eng katta chaqiriqdir. Bunda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi professional rahnamo – ustozga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham yuqori.

Ushbu maqsadning huquqiy va nazariy poydevori O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur Qonunning asosiy tamoyillarida ta'lim sohasining ustuvorligi, ta'lim oluvchilarning bilim, qobiliyat va iste'dodini uzluksiz rivojlantirish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish shartligi alohida belgilab berilgan. Ushbu qonuniy talablar zamonaviy oliy ta'lim muassasalari oldiga pedagoglarning nafaqat ma'lumot beruvchi (translyator), balki talabalarni mustaqil hayotga va raqobatli mehnat bozoriga tayyorlovchi haqiqiy murabbiy — yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ustoz bo'lishi vazifasini qo'yadi.

Tarixga nazar tashlasak, “ustoz-shogird” an'anasi Sharq musulmon dunyosi va Markaziy Osiyo ta'lim tizimining o'zagini tashkil etgan. Masalan, Imom A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh va uning shogirdi Abu Muqotil o'rtasidagi ilmiy savol-javoblarda ustozning naqadar donolik va sabr bilan yo'l ko'rsatishi namoyon bo'ladi. Yoki buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining ustozlari Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahallaga yaqin

kelganda otdan tushib, piyoda yurishi ustozga bo‘lgan cheksiz ehtiromning yorqin namunasidir.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: "Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday vazifani yechish zaruriyati tug‘ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz... qanday kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir» . O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida Bolonya deklaratsiyasi tamoyillari va kredit-modul tizimining keng joriy etilishi “ustoz-shogird” munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda ustoz faqat ma’lumot beruvchi (translyator) emas, balki talabani individual ta’lim traektoriyasini yaratishga yordam beruvchi akademik maslahatchi (edvayzer) vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, ta’lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda ishonch-e’tiqodli shogirdlarni tarbiyalash va zamon talabiga mos kadrlar yetkazib berishda bu tizimning samaradorligini raqobat usullari orqali oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va ilg‘or pedagogik tajribalarga tayangan holda, oliy ta’limda “ustoz-shogird” tizimining zamonaviy modellarini hamda undagi raqobat usullarining talabalar kasbiy va shaxsiy shakllanishidagi o‘rnini tahlil qilishdir.

## **2. Tadqiqot metodologiyasi (Methods)**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda zamonaviy pedagogika, sotsiologiya va psixologiya umume’tirof etilgan ilmiy metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni uchta asosiy yo‘nalishda olib borildi:

1. Normativ-huquqiy va nazariy tahlil: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi talablari , shuningdek, K.N. Jurabaev kabi olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi.

2. Empirik tadqiqot va so‘rovnoma (Quantitative Method): Oriental universiteti misolida 2023/2024 o‘quv yili davomida bakalavriat bosqichida tahsil oluvchi 250 nafar talaba va 40 nafar professor-o‘qituvchilar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada talabalarning akademik o‘zlashtirishi, ustozlar bilan ishlash jadalligi va sog‘lom raqobat muhitining ularning motivatsiyasiga ta’siri o‘rganildi.


3. Qiyosiy va statistik tahlil (Comparative & Statistical Analysis): Talabalar ikki guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (mustaqil tahsil oluvchilar, N=125) va Tajriba guruhi (tizimli ravishda ustoz/mentor biriktirilgan va raqobat muhitiga jalb qilinganlar, N=125). Ularning bir o‘quv yilidagi GPA (O‘rtacha o‘zlashtirish bali) ko‘rsatkichlari SPSS-25 dasturi yordamida tahlil qilindi.

## **3. Tadqiqot natijalari (results)**

Tadqiqot va empirik kuzatuvlar natijasida oliy ta’lim muassasalarida (OTM) “ustoz-shogird” tizimi o‘z-o‘zidan emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan murakkab algoritmlar asosida shakllanishi aniqlandi.

3.1. Tizimning zamonaviy modellari va samaradorlik statistikasi Dunyoviy ta’limda ustozlik quyidagi uchta asosiy modelda namoyon bo‘ladi: Tyutoring (moslashuv), Mentoring

(ilmiy-tadqiqot) va Kouching (kasbiy rivojlanish). Biz Oriental universiteti talabalari (N=250) oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalarini quyidagi 1-Diagramma. Raqobat usuli va mentorlikning talabalar oʻrtacha oʻzlashtirish (GPA) koʻrsatkichiga taʼsiri



Manba: Tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan statistik maʼlumotlar bazasi (2024 ).

**1-Jadval.** Ustoz-shogird tizimi modellarining talaba faoliyatiga taʼsiri (Soʻrovnoma natijalari % hisobida)

| Taʼlim modeli                              | Qamrab olingan bosqich | Akademik oʻzlashtirishning oʻsishi (%) | Ilmiy izlanishga qiziqishning ortishi (%) | Kasbiy tayyorgarlik va motivatsiya (%) |
|--------------------------------------------|------------------------|----------------------------------------|-------------------------------------------|----------------------------------------|
| <b>Tyutoring</b><br>(Moslashuv)            | 1-2 kurslar            | + 28.4%                                | + 15.2%                                   | + 20.0%                                |
| <b>Mentoring</b><br>(Ilmiy-amaliy)         | 2-3 kurslar            | + 35.6%                                | + <b>64.8%</b>                            | + 45.3%                                |
| <b>Kouching</b><br>(Kasbiy yoʻnaltiruvchi) | 3-4 kurslar            | + 25.1%                                | + 30.5%                                   | + <b>78.6%</b>                         |

Manba: Tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan statistik maʼlumotlar bazasi (2024)


Jadvaldan koʻrinib turibdiki, mentoring modeli talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishini qariyb 65% ga oshirsa, yuqori kurslardagi kouching ularni mehnat bozoriga tayyorlash va motivatsiyasini oshirishda eng yuqori (78.6%) natija koʻrsatgan.

### 3.2. Ustoz-shogird tizimida raqobat usullarining namoyon bo‘lishi

K.N. Jurabaevning ilmiy qarashlariga tayangan holda shuni ta’kidlash joizki, har bir mashg‘ulotning mazmuni va davlat talablariga muvofiqligi shogirdlardan ta’lim texnologiyalari usullarini to‘g‘ri tanlashni talab etadi. Bu samaradorlikni ustoz-shogird tizimida raqobat usullari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xalqimizdagi "Shogird ustozidan o‘zadi" degan ibora aynan shu ilmiy-intellektual raqobat natijasidir.

Tadqiqot guruhimizdagi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (GPA) sog‘lom raqobat muhiti kiritilgandan so‘ng keskin o‘zgargani kuzatildi. Quyidagi diagrammada Nazorat guruhi (an’anaviy ta’lim) va Tajriba guruhi (ustoz biriktirilgan va raqobat usuli qo‘llanilgan) talabalarining ballari qiyoslangan:

**1-Diagramma.** Raqobat usuli va mentorlikning talabalar o‘rtacha o‘zlashtirish (GPA) ko‘rsatkichiga ta’siri



Manba: Tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan statistik ma’lumotlar bazasi (2024)

Izoh: Raqobat usuliga jalb qilingan guruhda akademik natijalar boshqalarga nisbatan 14% dan 28% gacha yuqori bo‘lgan.

Ustoz dastlab shogirdga auditoriyani ko‘rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerakligini uqtiradi va darsning zerikarli bo‘lmasligiga harakat qiladi. Ustozning bitta shogirdi bo‘lmaydi. U shogirdlari bilan birga ishlar ekan, ular o‘rtasidagi sog‘lom raqobat shogirdni harakatga keltiruvchi asosiy motivatsion ta’sir kuchiga aylanadi.

Oliy ta’limda “ustoz-shogird” tizimini va undagi raqobat usullarini amaliyotga tatbiq etish qator ilmiy munozaralarni va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni keltirib chiqaradi.

### 4. Muhokama (discussion)

Birinchidan, Sharqona ma’naviyat va G‘arbona pragmatizm sintezi. Qadimgi Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy) yaratgan “ustoz-shogird” maktabida

asosiy urg‘u insonning axloqiy tarbiyasi, pokligi va ma’naviy kamolotiga qaratilgan . Bugungi zamonaviy G‘arb mentorlik modelida esa pragmatizm – ya’ni, aniq kompetensiyalarni rivojlantirish, bozor iqtisodiyotida raqobatlashish va karerada o‘lish ustuvorlik qiladi. Bugungi kunda oliy ta’lim oldida turgan asosiy vazifa – mana shu ikki yondashuvni sintez qilishdir. Ustoz shogirdiga nafaqat kuchli kasbiy bilimlarni (Hard skills), balki yuksak insoniy fazilatlarni (Soft skills) ham bera olishi lozim. Haqiqiy raqobat muhiti axloqiy me’yorlardan chiqib ketmasligi uchun ham ustozning nazorati muhimdir.

Ikkinchidan, raqobatning psixologik omillari. Ustoz shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi va o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa – bu boshqa odamlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko‘rsata olishi lozim . Bizning tadqiqot guruhimizdagi ba’zi talabalarda dastlab raqobatdan qo‘rqish (fobiya) kuzatildi. Biroq, mentoring to‘g‘ri yo‘l topa olish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Bu jarayon har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlar va kreativlikni talab qiladi.

Uchinchidan, Kredit-modul tizimidagi ob’ektiv muammolar va Elektron mentorlik (e-Mentoring). Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim soatlari ko‘paytirilgan, professor-o‘qituvchilarning esa auditoriya yuklamalari yuqori. Bunday sharoitda an’anaviy “yuzma-yuz” mentorlik ba’zan formal (qog‘ozdagi) ko‘rinishga kelib qolish xavfi mavjud. Xalqaro tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni raqamlashtirish orqali hal etish mumkin. Universitetlarning platformalarida (HEMIS, LMS) virtual mentorlik (e-mentoring) modullarini joriy etish ustoz va shogirdga vaqt va makonga bog‘liq bo‘lmagan holda ilmiy-amaliy aloqalarni olib borish imkonini beradi.

### **5. Xulosa (Conclusion)**

Olib borilgan keng qamrovli nazariy tadqiqotlar, statistik tahlillar va normativ-huquqiy hujjatlarning o‘rganilishi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oliy ta’lim tizimida “ustoz-shogird” an’anasi shunchaki o‘tmishning go‘zal merosi emas, balki ta’lim sifatini kafolatlovchi, talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi eng kuchli innovatsion pedagogik texnologiyadir. Shogird malakali kadr bo‘lib shakllanar ekan, raqobat usullarining har xil shakllarini o‘zlashtirishi lozim. Bu o‘z navbatida shogirdning mustaqil harakat qilishida va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishida beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida (jumladan Oriental universitetida) ustoz-shogird tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Maqsadli biriktirish va intellektual raqobat maydonini yaratish: Talabalarni ustozlarga shunchaki guruh ro‘yxati asosida emas, balki ularning ilmiy qiziqishlari va psixologik mosligi (maxsus psixometrik testlar orqali) asosida biriktirish. Shogirdlar o‘rtasida ilmiy startaplar, loyihalar tanlovi orqali doimiy sog‘lom raqobat maydonini shakllantirish.
2. Mentorlar maktabini va motivatsion tizimni tashkil etish: OTMlarda professor-o‘qituvchilar uchun “Zamonaviy mentorlik va raqobatni boshqarish mahorati” bo‘yicha

tizimli malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish. Shuningdek, faol ustozlarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.

3. Raqamli transparentlik (Ochiqlik) tizimini joriy etish: Universitetlarning raqamli tizimlarida “Ustoz-shogird” maxsus modulini yaratish va bu orqali talabalarning ilmiy yutuqlari reytingini ochiq e‘lon qilib borish. Bu esa o‘z navbatida avtomatik ravishda talabalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, asl dunyoviy ilm va yetuk mutaxassislik faqatgina darsliklar va ma‘ruzalar orqali emas, balki ustozning hayot tajribasi, ilmiy dunyoqarashi va professional mahoratini shogirdga uzatish hamda yaratilgan sog‘lom raqobatbardosh muhit orqali shakllanadi. Ushbu tizimning to‘g‘ri va samarali ishlashi butun respublika oliy ta‘lim tizimi raqobatbardoshligini xalqaro miqyosda oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar (izohlar):**

№ Foydalanilgan manbalar: SNOSKALAR

1O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son, 23.09.2020 y.). – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2020 yil. Mazkur qonunda ta‘lim oluvchilarning qobiliyatlari va iste‘dodini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. {1}

2"Al-olim va al-mutaallim" (Ustoz va shogird) kitobi asosida. Imom A‘zam (rahmatullohi alayh)ning o‘z shogirdlari Imom Abu Muqotil ibn Muslim bilan bo‘lib o‘tgan savol-javoblaridan olingan tarixiy ma‘lumotlar. {2}

3Karimov I.A. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq» NMIU, 1997. – B. 3-4. {3}

4Alisher Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiyga bo‘lgan yuksak ehtiromi haqidagi tarixiy manbalar va rivoyatlar asosida keltirildi

5Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006. – B. 45-50.

6Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 18. (Ta‘lim-tarbiya jarayoni va kadrlar tayyorlashning muhimligi haqidagi ma‘ruzadan iqtibos).

7Jurabaev K.N. Ustoz-shogird tizimida raqobat usullari. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI ilmiy-amaliy to‘plami. – Toshkent, 2021 yil. (Muallifning raqobat usullari va strategik maqsadlarga oid qarashlaridan keng foydalanildi). {4}

8O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni ilovasi). {5}

9 Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: TDPU, 2006. – B. 112-115. {6}

10 Rizouddin Ibn Faxriddin asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ustoz-shogird odoblari va xulq-atvorga oid ilmiy xulosalari. {7}

Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013. – B. 98-105.